



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **MADANIY IDENTITET VA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIANING ROLI**

**Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li**

Qo'qon universiteti, o'qituvchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda medianing madaniy identitet va qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy media platformalari insonlarning o'zini va boshqalarni idrok etish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotda sifatli kontent tahlili va nazariy manbalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, media nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki qadriyatlarni shakllantiruvchi, identitetni quruvchi va madaniy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi faol ijtimoiy omildir. Shu bilan birga, media madaniy birxillashuv, identitet ziddiyatlari va qadriyatlar transformatsiyasiga ham sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, global media makonida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolish uchun tanqidiy media savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** media, madaniy identitet, qadriyatlar, globallashuv, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy transformatsiya.

## **РОЛЬ МЕДИА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ЦЕННОСТЕЙ**

**Эргашев Ойбек Кахрамон угли**

Кокандский университет, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье анализируется роль медиа в формировании культурной идентичности и ценностей в современном обществе. В условиях глобализации и цифровой трансформации средства массовой информации и социальные медиа-платформы оказывают значительное влияние на процесс восприятия человеком самого себя и окружающих. В исследовании использованы методы качественного контент-анализа и изучения теоретических источников. Результаты показывают, что медиа являются не только средством передачи информации, но и активным социальным фактором, формирующим ценности, конструирующим идентичность и стимулирующим культурные изменения. Вместе с тем медиа могут способствовать культурной унификации, возникновению идентификационных конфликтов и трансформации ценностей. В заключение подчёркивается, что для сохранения национальных и культурных ценностей в глобальном медиапространстве важное значение приобретает развитие критической медиаграмотности.

**Ключевые слова:** медиа, культурная идентичность, ценности, глобализация, социальные сети, культурная трансформация.

## **THE ROLE OF MEDIA IN SHAPING CULTURAL IDENTITY AND VALUES**

**Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li**

Kokand University, Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the role of media in shaping cultural identity and values in contemporary society. In the era of globalization and digital transformation, mass media and social media platforms significantly influence the way individuals perceive themselves and others. The study employs qualitative content analysis and a review of theoretical sources as its main research methods. The findings indicate that media is not only a means of information dissemination, but also an active social factor that shapes values, constructs identity, and stimulates cultural change. At the same time, media can contribute to cultural homogenization, identity conflicts, and the transformation of values. The study concludes that critical media literacy is essential for preserving national and cultural values within the global media space.

**Keywords:** media, cultural identity, values, globalization, social networks, cultural transformation.

Zamonaviy jamiyatda media eng ta'sirchan ijtimoiy institutlardan biriga aylandi. An'anaviy ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot) hamda raqamli media (ijtimoiy tarmoqlar,

onlayn platformalar, striming xizmatlari) jamoatchilik fikrini, ijtimoiy me'yorlarni va individual qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Madaniy identitet — bu shaxsning ma'lum bir madaniyatga mansublik hissi bo'lib, u umumiy til, an'ana, e'tiqod va qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi. Qadriyatlar esa inson xulq-atvorini va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi axloqiy mezonlar va tamoyillardir.

Global kommunikatsiya tarmoqlarining kengayishi bilan media madaniy jarayonlarga mislsiz ta'sir kuchiga ega bo'ldi. U yangi turmush tarzi, xulq-atvor modellari va mafkuraviy qarashlarni targ'ib etadi. Bu esa mavjud madaniy identitetni mustahkamlashi, o'zgartirishi yoki unga qarshi turishi mumkin. Shu bois medianing madaniy identitet va qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — zamonaviy jamiyatda medianing identitet va qadriyatlar tizimiga ta'sir mexanizmlarini tahlil qilishdir.

Metodologiya. Tadqiqot sifat metodologiyasiga asoslanadi va quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

1. Media tadqiqotlari, madaniyatshunoslik va sotsiologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish.
2. Teleko'rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn yangiliklar portallari materiallari asosida kontent tahlili o'tkazish.
3. An'anaviy media va raqamli medianing qadriyatlar tizimiga ta'sirini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotda kommunikatsiya nazariyasi, madaniyat nazariyasi hamda ijtimoiy psixologiya yondashuvlari integratsiyalashgan holda qo'llanildi.

Globallashuv, raqamli jarayonlar va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida har bir millat o'zining an'anaviy qadriyatlarini saqlagan holda yangi davr talablariga moslashishi zarur. Chunki bugungi kunda axborot oqimining keskin tezlashuvi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining chuqurlashuvi va texnologik taraqqiyot milliy o'zlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlarning transformatsiyasi — bu qadriyatlarning butunlay yo'qolishi yoki boshqa qadriyatlar bilan almashishi emas, balki ularning zamonaviy hayot talablari, ijtimoiy ehtiyojlar va yangi tamoyillar asosida yangicha mazmun kasb etib borishidir.

Milliy qadriyatlar transformatsiyasi haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, “qadriyat” va “transformatsiya” tushunchalarining nazariy tahliliga murojaat qilish lozim. Qadriyatlar — bu jamiyatda yo'l tutish, insonlararo munosabatlarni shakllantirish, madaniy o'zlikni saqlash va avloddan-avlodga yetkazishga xizmat qiluvchi me'yorlar, ideallar va tamoyillar tizimidir. Ular axloqiy qoidalarni belgilaydi, milliy o'zlikni mustahkamlaydi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi hamda ta'lim, tarbiya va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Qadriyatlar jamiyat ma'naviy hayotining tayanch ustuni bo'lib, ular orqali shaxsning dunyoqarashi, hayotiy maqsadi va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanadi.

Shu ma'noda, qadriyatlar statik hodisa emas, balki doimiy harakat va rivojlanishda bo'lgan ijtimoiy-madaniy jarayondir. “Qadriyatlar o'z-o'zicha borliqqa ega emas, ularda faqat ahamiyat mavjud: ular irodaga, o'z oldiga qo'yilgan maqsadga qo'yilgan talablardir [1]”. Bu fikr qadriyatlarining inson faoliyati va ongiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Qadriyat tushunchasi turli falsafiy maktablarda turlicha talqin qilingan. Xususan, nemis faylasufi F. Lotze “qadriyat” tushunchasini ilmiy muomalaga faol kiritib, uning mazmunini subyekt uchun ahamiyat kasb etishi bilan izohlaydi [2]. Uning fikricha, qadriyat obyektiv mavjudlikdan ko'ra, inson ongida va munosabatida namoyon bo'ladi.

Sotsiologik yondashuvda esa qadriyatlar jamiyat tomonidan tan olingan va qo'llab-quvvatlanadigan ideal me'yorlar sifatida talqin qilinadi. Madaniy yondashuvda ular millatning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, an'analari va dunyoqarashida mujassamlashgan ma'naviy meros sifatida qaraladi. Demak, qadriyatlar bir vaqtning o'zida ham individual, ham ijtimoiy hodisa bo'lib, ular shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Globallashuv sharoitida turli xalqlarning madaniyati bir-biriga yaqinlashdi. Bu jarayon shaxsning dunyoqarashini kengaytiradi, boshqa madaniyatlarni hurmat qilishga o'rgatadi [3]. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet, xalqaro ta'lim dasturlari, migratsiya va turizm natijasida insonlar turli millat va din vakillari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada madaniyatlararo dialog kuchaydi, stereotiplar qisqardi, o'zaro tushunish va bag'rikenglik tamoyillari mustahkamlandi.

Edgar Morinning ta'kidlashicha, globallashuv jarayoni inson tafakkurini “kompleks fikrlash”ga undaydi, ya'ni u dunyoni bir butun tizim sifatida anglashga yordam beradi. Bu esa milliy chegaralar doirasida cheklanib qolmasdan, umuminsoniy qadriyatlarni anglash va qabul qilish imkonini yaratadi. Shaxs bir vaqtning o'zida ham milliy, ham global identitet sohibiga aylanishi mumkin.

Ommaviy madaniyatda tijoratchilik asosiy o‘rinda turadi. Reklama va marketing orqali jamiyatga “ko‘proq xarid qil, ko‘proq iste‘mol qil” kabi g‘oyalar singdiriladi [4]. Bu esa, ayniqsa, yoshlar ongida moddiy qadriyatlarning ustuvor bo‘lishiga olib keladi.

Frankfurt maktabi vakili T. Adorno “madaniyat industriyasi” tushunchasi orqali ommaviy madaniyatning aynan iqtisodiy manfaatlarga bo‘ysundirilganini tanqid qilgan edi. Uning fikricha, madaniyat mahsulotga aylantirilgach, u insonni ma‘naviy yuksaltirish vositasidan ko‘ra, iste‘molchini shakllantirish vositasiga aylanadi. Ya‘ni san‘at, musiqa, kino va boshqa madaniy shakllar bozor talabiga mos ravishda ishlab chiqariladigan standart mahsulotga aylanadi. Natijada insonning estetik didi va tanqidiy tafakkuri zaiflashadi.

Ayrim media mahsulotlarida zo‘ravonlik, shafqatsizlik, jinsiy ochiqlik va behayo nutq namoyon bo‘ladi. Bu holat yoshlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [5]. Bunday kontent yoshlarning psixologik rivojlanishiga, ijtimoiy me‘yorlarni qabul qilishiga va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishiga zarar yetkazishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik va shafqatsizlikka boy media mahsulotlarini tez-tez iste‘mol qiladigan bolalar va o‘smirlar odatda hissiy beqarorlik, agressiv xulq-atvor va boshqalar bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Jinsiy ochiqlik va behayo nutq esa yoshlarning jinsiy ongini noto‘g‘ri shakllantirishi, stereotiplar va noto‘g‘ri qadriyatlarni qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi “ideal hayot” tasvirlari yoshlar psixologiyasiga salbiy ta‘sir qiladi. Stress, past o‘z-o‘zini baholash, depressiya holatlari ko‘paymoqda [6]. Yoshlar ko‘pincha o‘z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilgan mukammal va muvaffaqiyatli hayot bilan solishtirib, o‘zlarini yetarli darajada qabul qilmaslik hissiga tushadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, doimiy ravishda mukammal “obraz”ni ko‘rish va unga erishishga intilish yoshlarda ruhiy zo‘riqish, xafagarchilik va xavotirni kuchaytiradi. Shuningdek, bu holat ularning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarini ham murakkablashtiradi: yoshlar real hayotdagi do‘stlik va aloqalarni yetarli darajada qadrlamaslikka moyil bo‘lishi mumkin.

Endi “transformatsiya” tushunchasiga to‘xtalsak, u lotincha “transformare” — “o‘zgartirmoq”, “shaklini o‘zgartirmoq” ma‘nolarini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda transformatsiya tushunchasi tizimning ichki tuzilmasi va funksiyalarida yuz beradigan sifat o‘zgarishlarini ifodalaydi. Bu oddiy evolyutsion o‘zgarishdan farqli ravishda, chuqur va ko‘lamli yangilanish jarayonini bildiradi. Ijtimoiy fanlarda transformatsiya jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy sohalarida yuz beradigan tizimli o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi.

Milliy qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida bir necha asosiy omillar muhim rol o‘ynaydi:

1. Globallashtirish omili – turli madaniyatlarning o‘zaro ta‘siri natijasida qadriyatlar mazmunida o‘zgarish yuz beradi.
2. Raqamli texnologiyalar – internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi axloqiy me‘yorlar va kommunikativ madaniyat shakllanadi.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar – bozor munosabatlari, migratsiya va urbanizatsiya qadriyatlar tizimiga ta‘sir ko‘rsatadi.
4. Ta‘lim va ommaviy axborot vositalari – qadriyatlarning saqlanishi va yangilanishida vositachi vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar transformatsiyasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u milliy o‘zlikni yo‘qotish emas, balki uni zamon talablariga mos ravishda boyitish va takomillashtirishni anglatadi. Asosiy masala — an‘anaviylik va zamonaviylik o‘rtasida muvozanatni saqlashdir. Zero, milliy taraqqiyot barqarorligi aynan tarixiy ildizlarga tayangan holda yangilanish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga bog‘liqdir.

Natijalar. Tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalar aniqlandi:

Media madaniyat qanday tasvirlanishini belgilab beradi. Filmlar, seriallar, reklama mahsulotlari va ijtimoiy tarmoq kontentlari orqali milliy identitet, gender rollari, oila modeli va ijtimoiy kutishlar shakllantiriladi. Ushbu tasvirlar shaxsning o‘zini anglash jarayoniga ta‘sir ko‘rsatadi.

Media va qadriyatlar translyatsiyasi

Media ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni uzatuvchi vosita sifatida faoliyat yuritadi. U iste‘molchilik, individualizm, erkinlik, tenglik yoki vatanparvarlik kabi qadriyatlarni targ‘ib etadi. Ma‘lum g‘oyalar va narrativlarning takroriy namoyishi ularni kundalik hayot me‘yoriga aylantiradi.

Globallashuv va madaniy birxillashuv

Global media kompaniyalari butun dunyo bo‘ylab standartlashtirilgan madaniy mahsulotlarni

tarqatadi. Bu jarayon mahalliy an'ana va identitetlarning so'nishiga olib kelishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, media raqamli platformalar orqali milliy madaniyatni targ'ib qilish imkonini ham yaratadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va identitet shakllanishi

Ijtimoiy tarmoqlar shaxslarga o'z identitetini omma oldida shakllantirish va namoyon etish imkonini beradi. Foydalanuvchilar postlar, suratlar va muloqotlar orqali o'z obrazini yaratadilar. Natijada mahalliy va global madaniyat unsurlarini birlashtirgan gibrid identitetlar yuzaga keladi.

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, media neytral vosita emas, balki faol madaniy kuchdir. U voqelikni talqin qilish, qadriyatlar tizimini shakllantirish va identitet qurish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

Bir tomondan, media milliy qadriyatlar va madaniy merosni targ'ib qilish orqali identitetni mustahkamlashi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, muqobil turmush tarzi va g'oyalarni targ'ib etish orqali an'anaviy me'yorlarga qarshi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Globalashuv sharoitida mahalliy va global madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir yangi imkoniyatlar bilan birga muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida identitet inqirozi va qadriyatlar ziddiyati kuzatilishi mumkin.

Shu sababli tanqidiy media savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shaxslar media xabarlarini tahliliy qabul qila olishi, madaniy ta'sir va manipulyatsiyani farqlashi hamda o'z milliy identitetini saqlab qolishi zarur.

Xulosa. Media zamonaviy jamiyatda madaniy identitet va qadriyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U madaniy narrativlarni yaratadi, axloqiy mezonlarni uzatadi va identitet shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Medianing ta'siri konstruktiv ham, transformatsion ham bo'lishi mumkin.

Ijobiy natijalarga erishish uchun jamiyatda media savodxonlikni oshirish, milliy madaniy mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash hamda global integratsiya va madaniy merosni asrash o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Современная западная философия: словарь. – М.: Одиссей, 1991. – С. 11–14.
2. Фёдоров В. А. Эволюция понятия «ценность» // Научная статья по специальности «Философия, этика, религиоведение» [Электронный ресурс]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-ponyatiya-tsennost>
3. Morin E. La culture de masse. – Paris, 2005. – P. 41–43.
4. Adorno T. Culture industry. – New York, 1991. – P. 74–79.
5. Karimov S. Media madaniyati va ma'naviyat. – Toshkent, 2019. – B. 88–93.
6. Jo'rayev M. Globalashuv va madaniyat. – Toshkent, 2020. – B. 54–56.